

NAMANGAN SHAHAR URBANOFLORASIDA TARQALGAN BIR URUG‘PALLALILAR

Mutalibxonova Munisxon Faxriddinxon qizi

Namangan Davlat Universiteti o‘qituvchisi

mutalibxonovamunisxon@gmail.com

Annotatsiya: *Ilk marotaba Namangan shahar urbanoflorasidagi bir urug‘pallali o‘simliklarning 8 oila, 39 turkumga mansub 59 turdan iborat taksonomik tarkibini aniqlandi. Aniqlangan turlar asosan gemikriptofit va terofit hayotiy shakliga mansub. Mazkur ma’lumotlar Namangan shahar o‘simliklari davlat kadastrini yaratish uchun xizmat qiladi. Aniqlangan turlar orasida Poaceae, Cyperaceae muhim ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Yetakchi oilalar spektri sinantrop muhit florasi xususiyatlarini o‘zida mujassamlashtirgan. Urbanoflorasining yetakchi turkumlar spektrida Poaceae va Cyperaceae oila turkumi dominantligi hududning o‘ziga xos xususiyatlari bilan ifodalanadi.*

Kalit so‘zlar: *Urbanoflora, gemikriptofit, terofit, poaceae oilasi, cyperaceae oilasi, biologik xilma xillik, invaziv maqom, sinantrop muhit, oilalar spektri.*

Abstract: *For the first time, the taxonomic composition of monocotyledonous plants in the urban flora of Namangan was determined, consisting of 59 species belonging to 8 families and 39 orders. The identified species mainly belong to the hemicryptophyte and therophyte life forms. This information will serve to create a state cadastre of Namangan urban plants. Among the identified species, Poaceae and Cyperaceae were found to be of significant importance. The spectrum of the leading families embodies the characteristics of the flora of the synanthropic environment. The dominance of the families Poaceae and Cyperaceae in the spectrum of the leading genera of urban flora is expressed by the specific characteristics of the area.*

Keywords: *Urban flora, hemicryptophyte, therophyte, family Poaceae, family Cyperaceae, biodiversity, invasive status, synanthropic environment, spectrum of families.*

Аннотация: *Впервые определен таксономический состав однодольных растений городской флоры Намангана, состоящий из 59 видов, относящихся к 8 семействам и 39 порядкам. Выявленные виды в основном относятся к гемикриптофитам и терофитам. Эта информация будет использована для создания государственного кадастра городской флоры Намангана. Среди выявленных видов особое значение имеют Poaceae и Cyperaceae. Спектр ведущих семейств отражает особенности флоры синантропной среды. Доминирование семейств Poaceae и Cyperaceae в спектре ведущих родов городской флоры выражено специфическими особенностями данной территории.*

Ключевые слова: *Урбанистическая флора, гемикриптофиты, терофиты, семейство Poaceae, семейство Cyperaceae, биоразнообразие, инвазионный статус, синантропная среда, спектр семейств.*

Namangan viloyati respublikaning sharqida, Farg‘ona vodiysining shimoli-g‘arbiy qismida, Tyanshan tog‘ tizmasi tarmoqlari — Qurama va Chotqol tog‘larining yonbag‘rida joylashgan. Shimoliy va shimoli-sharqdan Qirg‘iziston Respublikasining Jalolobod viloyati, janubi-sharqdan Andijon, janubidan Farg‘ona, shimoliy va shimoli-g‘arbdan Toshkent viloyati va Tojikistonning Sug‘d viloyati bilan chegaradosh. Maydoni 7,44 ming km². Aholisi 2931,5 ming kishi (2021). Aholi zichligi o‘rtacha 1 km² ga 266 kishi .

Vodiyning shimolida, Shimoliy Farg‘ona kanali bilan Namangansoy kesishgan yerda, 450 metr balandlikda joylashgan. Maydoni 30,3 ming km². Iyul oyida o‘rtacha harorat selsiy shkalasi bo‘yicha 26,3 C°, yanvar oyida - 2,3C°. Aholisi 400 ming kishi atrofida.

Namangan viloyat hududining asosiy qismi Sirdaryoning o‘ng sohilida, keng Farg‘ona vodiysida joylashgan. Yer yuzasi, asosan, tekislik bo‘lib, shimolda qator tepaliklar va Chotqol hamda Qurama tog‘lari bilan o‘ralgan. Balandligi 350-800 m. Tog‘ va adirlar, tor vodiylar, vohalar to‘rtlamchi geologik davrning katta-kichik daryolari va irmoqlarning faoliyatidan hosil bo‘lgan .

Namangan viloyatida so‘nggi 40 yillikda demografik ko‘rsatkichlar.

Yer osti suvlari tog‘, adir, tog‘ oldi botiqlarida va yoyilmalarda yirik toshli, shag‘alli va qumli qatlamlarda joylashgan. Sirdaryoga yaqin zonalarda yer osti (sizot) suvlari mavjud. Iqlimi keskin kontinental. Yozi uzoq, issiq, qishi qisqa, nisbatan sovuq. Yillik o‘rtacha temperatura +13C°. Yanvarda temperatura –25C° gacha pasayadi, iyunda +35+45C° ga yetadi. Vegetatsiya davri 229 kun. Viloyatning turli qismlarida yog‘in miqdori turlicha. Namanganda o‘rtacha yillik yog‘in miqdori 230 mm, g‘arbida 90-190 mm, sharqiy tumanlarida 300-400 mm, tog‘ etaklarida 600 mm. Yog‘inning eng ko‘p qismi bahor va kuzda yog‘adi. Daryolari yog‘indan, tog‘lardagi qor va muzliklardan suv oladi.

Namangan shahar urbanoflorasi bir urug‘pallalilarni tadqiq etish maqsadida, 2023–2024 yillarning mart oyidan avgust oyiga qadar Namangan shahar hududi bo‘ylab maqsadli dala tadqiqotlari olib borildi. Jumladan, dala tadqiqotlari A.V.Sherbakov, S.R.Mayorov tomonidan ishlab chiqilgan metodlardan foydalanilgan holda amalga oshirildi.

Shuningdek, dissertatsiya ishining materiallari sifatida Namangan viloyati va shahar atrofidagi tabiiy landshaftlardan terilgan gerbariy namunalari O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Botanika institutining O‘zbekiston Milliy gerbariy fondidan (TASH) foydalanildi. Qo‘shimcha ma‘lumotlar Global bioxilma-xillik ma‘lumotlar bazasidan (GBIF) hamda Moskva davlay universiteti virtual gerbariy ma‘lumotlaridan foydalanildi. O‘simliklarni o‘rish maydonlari to‘g‘risidagi geografik koordinatalar Google Earth Pro 7.1 dasturi yordamida, tadqiqot hududining tabiiy landshafti va aniqlangan turlarning joylashub koordinatasi GPS navigator (Garmin Gpsmap 64s) va Maps.MI dasturi yordamida aniqlandi hamda turlarning tabiatdagi tasvirlari raqamli fotoaparat (Canon EOS 400D) bilan suratga olingan. Ayrim turlarning tabiiy illustratsiyasi Photoshop CS6x64 dasturi orqali amalga oshirildi. Turlarning konspektini tayyorlashda har bir turning ilk ilmiy manbasi, tarqalish geografiyasi, hayotiy shakli, va fenologiyasi hamda turning tarqalish xaritasi bilan o‘simlikning tabiiy tasviri keltirib o‘tilgan. Konspektni tuzishda “Определитель растений Средней Азии”, “Флора Узбекистана” fundamental

manbalardan foydalanildi. O‘simliklarni hayotiy shakllari S.Raunker (1934) tasnifi asosida amalga oshirildi.

Taksonlarning mualliflari “Authors of Plant Names” R.K. Brummit, C.E. Powell qo‘llanmasi asosida yozildi. Taksonlarning nomenklaturasi va ilmiy nomlari (turlarni tarqalish xaritalari ham) Plants of the World Online (POWO) <http://www.plantsoftheworldonline.org>), International Plant Name Index (IPNI) www.ipni.org) xalqaro katologi bo‘yicha keltirildi. Tadqiqot hududida aniqlangan adventiv (begona) turlarni ro‘yxati Global Biodiversity Information Facility (GBIF) <https://www.gbif.org/>), Global Invasive Species Database (GISD) <http://www.iucngisd.org/gisd/>), Invasive Species Compendium (CABI) <https://www.cabi.org/isc/>) kabi xalqaro bazalar ro‘yxatidan tekshirildi va mavjud ro‘yxat asosida shakllantirildi.

Namangan shahr urbanofloradagi bir urug‘pallalilarning yetakchi turkumlari spektri

Namangan shahri urbanoflorasining yetakchi turkumlar spektrida Poaceae va Cyperaceae oila turkumi yetakchiligi hududning xos xususiyatlari bilan ifodalansa, ularning uchrash maydonlari asosan sernam hududlarda qayd etildi.

Cyperaceae Juss. *Carex leporina* L.

Dastlab qayd etilgan manbaasi. First published in Sp. Pl.: 973 (1753).

Tarqalishi. Azor orollari, janubi-g‘arbiy Afrika, Yevroosiyo, g‘arbiy Kanadadan Amerikaning g‘arbiy qismigacha .

Hayotiy shakli va ahamiyati. Gemikriptofit, hayvonlar uchun oziq-ovqat va yem-xashak sifatida ishlatiladi.

Fenologiyasi. Gullash davri; IV-V, Mevalash davri; V-VI.

Ilk marotaba Namangan shahar urbanoflorasidagi bir urug‘pallali o‘simliklarning 8 oila, 39 turkumga mansub 59 turdan iborat taksonomik tarkibini aniqlandi. Aniqlangan turlar asosan gemikriptofit va terofit hayotiy shakliga mansub. Mazkur ma’lumotlar Namangan shahar o‘simliklari davlat kadastrini yaratish uchun xizmat qiladi. Aniqlangan turlar orasida Poaceae , Cyperaceae muhim ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Yetakchi oilalar spektri sinantrop muhit florasida xususiyatlarini o‘zida mujassamlashtirgan. Urbanoflorasining yetakchi turkumlar spektrida Poaceae va Cyperaceae oila turkumi dominantligi hududning o‘ziga xos xususiyatlari bilan ifodalanadi. Namangan shahar urbanoflorasidagi bir urug‘pallalilari Krasnodar, Grozniy, Xarkov shaharlari urbanofloralari bilan taqqoslash natijasiga ko‘ra, ular orasida Poaceae oilasi yetakchilik qilishi aniqlandi. Ular shahar florasida tarkibida ruderal, partov yerlar, yo‘l, ariq bo‘ylari, gulzorlar va ekin maydonlarida keng uchrashi bilan izohlanadi. Ilk marotaba, sinov-tajriba asosida, Namangan shaharida joylashgan “Xurmatxon-aya” qabristonining bufer qismida dala-kuzatuv tahlillari amalga oshirildi. Hududdan 5 oilaning 20 turkumiga mansub 27 tur o‘simlik ro‘yxati shakllantirildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 30 октябрдаги 5863-сон “2030 йилгача бўлган даврда Ўзбекистон Республикасининг Атроф - муҳитни муҳофаза қилиш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги Фармони.
2. Tojibaev K.Sh., H.K. Esanov (2021). Current state of study of invasive Species of Uzbekistan. Biological Research. 2021/8 (60) 5-15.
3. Raunkier C. The life form of plants and statistical plant geography. – Oxford, 1934. 632 p
4. Xoshimov X.R. “Farg‘ona vodiysi shimoliy adirlarining florasini”. Dissertatsiya. Biologiya., PhD., Toshkent- 2023.
5. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Botanika institutining 2022-yil hisoboti. Toshkent - 2022. 135 b.
6. Temirova G.B. Toshkent shahri urbanoflorasida tarqalgan Poaceae Barnh. oilasining tasnifi. International scientific journal science and innovation. Toshkent-2023. 901-904 b.
7. Каримов Ф.И. Фарғона водийсининг бир уруғпаллали геофитлари: Биол. фан. докт. дисс. – Ташкент: 2016. – 156 с.
8. The Global Biodiversity Information Facility (GBIF) – URL: www.gbif.org
9. <https://www.Google.com/earth/>